

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TA'LIM JARAYONIDAGI KASBIY OMILKORLIGI

Raxmonova Sojida Muxammadovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Murtazoyeva Dilfuza Murotovna

Vobkent tuman 17-son DMTT direktori

raxmonovasojida9@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi kasbiy omilkorligi, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, zamonaviy o'qituvchining innovatsion kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda pedagogning o'rni, bo'lajak pedagoglarning shaxsiy, kasbiy hamda maxsus kompetensiyalari, bugungi kun zamonaviy mutaxassislarning kasbiy sifatlari va ularning ta'limiy jarayonlardagi ahamiyati, bo'lajak pedagogning kasbiy salohiyatini shakllantirish haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy faoliyat, kasbiy salohiyat, ijodiy izlanuvchanlik, kompetentlik, faollik, mahorat, islohot, liderlik, adolatlilik, omilkorlik, muvaffaqiyat, ijodiy faoliyat.

Аннотация. В статье рассматриваются профессиональная эффективность будущих учителей в образовательном процессе, успехи в педагогической деятельности, роль педагога в эффективной организации инновационной профессиональной деятельности современного учителя, личностно-профессиональные и специальные компетенции будущего учителя, Даны современные общие сведения о профессиональных качествах специалистов и их значении в образовательном процессе, формировании профессионального потенциала будущего педагога.

Ключевые слова: Профессиональная деятельность, профессиональный потенциал, творческая любознательность, компетентность, активность, умение, реформаторство, лидерство, справедливость, эффективность, успешность, творческая деятельность.

Abstract. The article discusses the professional effectiveness of future teachers in the educational process, success in pedagogical activity, the role of the pedagogue in the effective organization of the innovative professional activity of a modern teacher, personal, professional and special competencies of future teachers, today's

modern general information about the professional qualities of specialists and their importance in educational processes, the formation of the professional potential of the future pedagogue is given.

Key words: Professional activity, professional potential, creative curiosity, competence, activity, skill, reform, leadership, justice, effectiveness, success, creative activity.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimining ravnaqi yo'lida keng islohotlar olib borilmoqda. Bu sohada olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini yuqori saviyadagi umumiy va kasbiy salohiyatli, pedagogika sohasida fundamental bilimlarni chuqur egallagan, ta'lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor pedagoglarsiz, o'qituvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy pedagogik faoliyatning o'ziga xos usullarini shakllantirishga va takomillashtirishga, kasbiy salohiyatining mukammallashuviga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

O'qituvchilik kasbining mohir ustasi bo'lish, haqiqiy pedagog bo'lish, avvalo, shaxsning o'zidagi individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va uning individual ishlay olish qobiliyatining qay darajada shakllanganligi bilan bog'liq. Kasbiy faoliyat, individual ishlash qobiliyati, usullari aynan oliy o'quv yurtida o'quv va amaliy

mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati uchun xizmat qiladi.

Pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda ularning kasbiy mahorat va omilkorligini shakllantirish g'oyasi yetakchi o'rinda bo'lishi lozim. Bo'lajak malakali o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish yo'llari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo bo'lajak o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini shakllanganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishi, kasbiy – pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanadi.

O'qituvchining kasbiy mahorati biz bilamizki - ta'lim jarayonida va ish faoliyatida shakllanadi. Bo'lajak o'qituvchi-talabalar o'zining mahoratini ikki tomonlama oshirib, mustahkamlab boradilar. Ta'lim olish jarayonida nazariy, amaliy mashg'ulotlarda, amaliyotlarda esa nazariy olgan bilimlarini yanada mustahkamlab

boradilar. Shu boisdan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar ko'proq amaliy jihatdan o'zlarining malakalarini oshirishlari uchun, "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 4+2 tartibda amaliyotlar joriy etildi. Chunki ish faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammolar juda ham ko'p.

Bo'lajak o'qituvchilarga eng avvalo, kasb, kasbiy mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bilamizki kasbiy ko'nikma, kasbiy mahorat o'qituvchida yillar davomida shakllanib takomillashib boradi. Yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, faqatgina ish faoliyati jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati oshib, amaliy va uslubiy tajribalarga ega bo'lib boradi. O'qituvchilik kasbiy mahorat o'ta murakkab va mashaqqatli jarayon bo'lgani sababli, uni egallash, yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining uzoq yillar davomida samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro'yobga chiqadigan jarayondir. Ammo bo'lajak pedagoglarga pedagogik mahorat

sirlarining ilmiy va amaliy negizi, kasbiy layoqat asoslari o'z vaqtida berilmas ekan uni oliy ta'limdan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida kashf etish har doim ham o'z samarasini beravermaydi.

Har tomonlama o'zini anglagan, mustahkam immunitetli, jamiyatning ilg'or turmush tarziga moslashgan, ta'lim-tarbiya va kasb bilimlarni hamda pedagogik va axborot texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan doimo xabardor, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan bilimlarga ega bo'lgan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan fuqarolarni tarbiyalovchi o'qituvchida yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik bo'lishi lozim albatta. Qachonki, bo'lajak o'qituvchi hozirgi zamon talablariga mos, axborot texnologiyalari hamda fan va texnikaning so'ngi yutuqlari bilan qurollangan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni ta'lim tizimiga tadbiq eta oladigan bo'lsagina ta'lim sohasi muvaffaqiyatga yuz tutadi.

Pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassisni shakllantiradi va uni murakkab kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassislar lozim bo'lgan kasbiy sifatlarining murakkab to'plamini an'anaviy ta'lim jarayonida qisqa fursatda egallashi lozim. Zamonaviy

mutaxassislar uchun lozim bo'lgan kasbiy sifatlar dunyodagi yangi o'zgarishlarga va talablarga mos keladigan malakalardir. Bu sifatlar, mutaxassislarning kasbiy uchrashuvlarni yaxshi bajarish, yuqori darajada natijalarni olish va kuchli jamoa a'zolari bo'lishi uchun muhimdir. Zamonaviy mutaxassislar uchun quyidagi kasbiy sifatlar muhimdir:

Kreativlik va innovatsiyalar: Zamonaviy mutaxassislar yangi yondashuvlar izlash va yangiliklarni amalga oshirishga doimo intiladilar. Bu pedagogdan kreativlik va innovatsiyalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Tajribaviy o'qish: Muntazam o'qish va izlanishda bo'lish va zamonaviy mutaxassislar o'zlarini o'rganish va yangilashga tayyor bo'lishlari lozim. O'qish, kasbiy rivojlantirish va yangilashni o'z ichiga oladi.

Ijodiy yondashuvlar: Zamonaviy mutaxassislar muammolarni yechish va yangi yondashuvlar izlab topishda yetakchi bo'lishadi. Ularning ijodiy yondashuvlari va kreativliklari ta'limda yangi yechimlar yaratishga olib kelishi mumkin.

Ko'p til bilish: Zamonaviy jamiyatda ko'p tilda gaplashish qobiliyati, global hamkorlik va kommunikatsiya uchun muhimdir. Mutaxassislarning kasbiy faoliyatida

ingliz tili yoki boshqa xorijiy tillarni bilishlari ahamiyatli.

Axborot texnologiyalardan xabardorlik: Texnologiyalar zamonaviy dunyoning global mavzusiga aylandi. Shuning uchun mutaxassislar texnologiyalar bilan yaxshi qurollangan, tanishgan va ularni qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Liderlik: Zamonaviy mutaxassislarda o'zlarini boshqarish, jamoa bilan ishlash va maqsadlarga yo'naltirish qobiliyatlari yuqori bo'lishi lozim.

Adolatlilik: Mutaxassislar doimo adolatli, har ishda shaffof, inson shaxsiga doimo hurmatda bo'lishi lozim.

Javobgarlik: Zamonaviy mutaxassislar mas'uliyatni sezgan holda o'z ishlari va natijalari uchun javobgarlikni o'zlashtirishadi.

O'qitish va o'rganish qobiliyatlari: Zamonaviy mutaxassislar o'quvchilarni o'rganish va o'qitishga tayyor bo'lishadi, chunki bilim o'rganish va ta'lim tizimlari dunyodagi eng ko'p o'zgaruvchilardan biri hisoblanadi.

Bu sifatlar zamonaviy mutaxassislar uchun asosiy bo'lib, ularni kasbiy rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida ta'lim

tizimidagi barcha kamchiliklarni bartaraf etib borilsa, ular yangi zamonaviy bilimlar bilan to'ldirilib borilsa, integral bilimlar tizimi shakllantirib borilsa, bo'lajak pedagogning kasbiy mahorati, kasbiy salohiyati mustahkamlanib boradi.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlarining asosi sifatida qaralayotgan o'qituvchining texnologik madaniyati talabalarning ichki imkoniyatlarini ijodiy tomonga yo'naltiruvchi jarayondan iboratdir. Xulosa qilib aytganda bo'lajak o'qituvchining yuksal tayyorgarlik darajasiga va ma'naviy axloqiy saviyasiga qo'yiladigan talablar doimiy ravishda yangilanib boradi. Zamonaviy o'qituvchi esa zamon

bilan hamnafas, o'z sohasi bo'yicha zamonaviy ta'lim muhiti talablari, yangiliklardan doimo xabardor, pedagogik texnologiya metodikalarini amalda samarali qo'llay bilishi lozim.

Bugunning har bir bo'lajak oliy ma'lumotli pedagogi o'z kasbiy faoliyatining ixtisosligi va xususiyatidan qat'iy nazar fundamental bilimlarga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim. Bu bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda, bo'lajak mutaxassisga o'z kasbiga oid bilim, savol yoki muammolar bo'yicha o'z nuqtai nazarini aniqlab olish imkoniyatini beruvchi ijodkorlik tadqiqotchilik va mustaqil faoliyat tajribasining bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.X. To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

7. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.

8. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.

9. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.

10. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2017 y. -434 bet.

11. S.M. Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12

<https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

12. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалык журнал 5/1 2022 y.101-105 bet

13. S.M. Raxmonova PREPARING THE GRADUATE STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. 288-293 bet

14. S.M. Raxmonova PRACTICAL FEATURES OF PREPARING PRIMARY EDUCATION STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM, 2(9), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>

15. S.M.Raxmonova (2023). ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(23), 92–94 с. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/19974>